

## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA TEXNOLOGIYANING ROLI

Z. Suyunova <sup>1</sup>, D. Fozilova <sup>2</sup>, Z. Shermamatova <sup>3</sup>

*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv vositalar orqali til o'rganishning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Texnologiyalar o'quvchilarga keng resurslarga kirish, shaxsiylashtirilgan o'qitish va xalqaro muloqot imkoniyatlarini taqdim etadi. Tadqiqot, kelajakda texnologiyalarning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi muhim rolini ta'kidlaydi.

*Kalit so'zlar:* texnologiyalar, ilovalar, resurslar, platforma, globallashuv, interaktiv darslar, e-learning, kommunikatsiyalar.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/gr4h6o43>

---

Kirish. Ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiyaning asosiy tili sifatida tanilgan. Har bir inson, o'z maqsadlariga erishish uchun, ingliz tilini o'rganishga intilmoqda. Dunyo bo'ylab milliondan ortiq insonlar bu tilda bemaol muloqot qila oladi va bu tilni o'rganish allaqachon jahon talabiga aylanib ulgurdi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, ingliz tilining ilm- fan, biznes, madaniyat va turizm kabi sohalardagi ahamiyatidir. Shunday qilib, ingliz tilini o'rganish jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kun miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, texnologiyalar ham kun sayin takomillashib bormoqda va bu ko'plab sohalarda o'z samarasini bermoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu inovatsiyalar ta'lim sohasida ham katta yutuqlarga erishdi. Eng katta yutuqlaridan biri bu, onlayn ta'lim platformalarning yaratilganligi bo'ldi. Ularga misollar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Duolingo, Rosetta Stone, Babbel. Bu dasturlar orqali foydalanuvchilar o'z vaqtida va joyida ingliz tilini o'rganishlari mumkin. Ushbu platformalar interaktiv darslar, o'yinlar va mashqlar orqali tilni o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi. Misol sifatida, Duolingo dasturi foydalanuvchilarni rag'batlantirish uchun o'yin elementlarini qo'shadi, bu esa o'rganishni yanda qiziqarli va oson qiladi. Qolaversa, ularning bu funksiyalari orqali kichik yoshdagi bollalar ham bu tilni oson va maroq bilan tasavvurlar orqali o'rgana oladi.

Ta'lim sohasida texnologiyalar juda ham muhim va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu haqida olimlar ham o'z fikrlarini ta'kidlab o'tganlar. Misol uchun Ruth Colvin Clark va Richard E. Mayer o'zlarining "E-learning and Science of instruction" kitobida e-learning (onlayn o'rganish) ning samaradorligini oshirish uchun multimedia materiallaridan qanday foydalanish kerakligi haqida fikrlar keltirilgan. Ular

---

<sup>1</sup> *Suyunova Zilola, SamDCHTI talabalasi*

<sup>2</sup> *Fozilova Dildora, SamDCHTI talabalasi*

<sup>3</sup> *Shermamatova Zaynab Azimjon qizi, SamDCHTI katta o'qituvchisi*

["Samarali e-learning kurslari talabalarning diqqatini jalb qilish va ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolishlariga yordam beradi "], deb yozadilar.

Hozirgi taraqqiy etgan davrda mobil ilovalar ham ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Smartfonlar, planshetlar yordamida foydalanuvchilar istalgan joyda va vaqtda dars o'tishlari va o'rganishlari mumkin. Misol uchun "Memerise" ilovasi foydalanuvchilarga yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradi. Ushbu ilova so'zlarni visual va eshitish orqali eslab qolishni taklif etadi. Ma'lumot o'rnida yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, audio va video materiallar ham mavjud bo'lib ular podkastlar orqali foydalanuvchilar ingliz tilidagi turli mavzularni tinglashi, You tube, Twitter kabi platformalarda onlayn darslarni va ingliz tilida filmlar va seriallarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi va bular orqali foydalanuvchilar talaffuzlarini yaxshilashlari, yangi so'zlarni o'rganishlari va madaniyatni o'rganishlari mumkin.

Internet olamida yana shunday platformalar, dasturlar bor ki ularda foydalanuvchilar boshqa tillarni biladigan odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadilar va Grammarly kabi dasturlar foydalanuvchilarning yozuvlarini tahlil qilib, xatolarini tuzatishga yordam beradi.

Globallashgan hayotimizning har bir jabhasida texnologiyalar mushkulimizni oson qilmoqda, shunga qaramasdan texnologiyalarga bo'lgan moyillik ularga nisbatan qaramlikka olib kelmoqda ya'ni insonlar har sohada ularning yordamiga suyanib qolishmoqda. Aslida esa inson faqat ma'lum bir narsaning yordamiga tayanib emas, balki o'zi mustaqil jismoniy yoki aqliy mehmata qilishdan yiroqlashmasligi kerak desak to'g'riroq bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, texnologiya faqatgina vosita hisoblanadi; asosiysi - bu vositalardan qanday foydalanishni bilishdir. Talabalar texnologiyani to'g'ri yo'naltirib, ingliz tilini muvaffaqiyatli ravishda o'rganishlari uchun kerakli motivatsiya va intilishga ega bo'lishlari zarur. Ingliz tilini o'rganishda texnologiya orqali erishilgan natijalar, kelajakda yanada ko'proq imkoniyatlarni ochadi va global kommunikatsiyalarda ishtirok etishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Ruth Colvin Clark va Richard E. Mayer "E-learning and Science of instruction"

[2]. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

[3]. [uzresearchers.com](https://uzresearchers.com) <https://uzresearchers.com> > *ijrsPDF* Ingliz tilini organishda texnologiyaning orni

[4]. Tursunova, Sabrina, Zahro Komilova, and Zaynab Shermamatova. "Improving Writing Skills of Students." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 200-203.

[5]. Yuldasheva, Kumushoy, et al. "Interactive Methods of Teaching Vocabularies for Primary School Children." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 146-150.

[6]. Shermamatova, Zaynab, Islom Tursunov, and Davron Abduravikov. "The Role of Technology in Language Teaching: Strategies and Best Practices." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 151-154.

- [7]. Suyunova, Guzal, Mushtariy Shokirova, and Zaynab Shermamatova. "Motivation in Language Learning and Teaching." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 210-213.
- [8]. Elmurodova, Gulsina, and Zaynab Shermamatova. "The Best Methods of Teaching Foreign Languages to Primary School Children." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 170-174.
- [9]. Shermamatova, Zaynab, Suyunboyeva Muxlisa, and Shaxzoda Shodmonqulova. "Ingliz tilini o'qitishda tana tilidan foydalanishning asosiy samaralari." *Educational Research in Universal Sciences* 2.14 (2023): 994-996.
- [10]. Elmurzayev, Asilbek, Azizbek Ismoilov, and Zaynab Shermamatova. "Why Do We Study." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 218-222.
- [11]. Ravshanjonova, Diyora, and Zaynab Shermamatova. "Using Interactive Methods of Improving Writing Skill for Students." *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics* 1.4 (2023): 138-141.
- [12]. Azimjanovna, Shermamatova Zaynab. "The role of teacher in the learning process." *Pedagog* 7.5 (2024): 354-356.
- [13]. Azimjanovna, Shermamatova Zaynab, Tashbadalova Sitora, and Kurbanova Sabina. "Present day means of teaching reading skills at elementary school." *Pedagog* 7.5 (2024): 348-353.
- [14]. Mamadoliyevna, Karimova Maftuna, Xudoyberdiyeva Ra'no Xaqberdiyevna, and Shermamatova Zaynab Azimjanovna. "Eways of enriching vocabulary." *Ijodkor o'qituvchi* 4.39 (2024): 208-210.
- [15]. Qizi, Shermamatova Zaynab Azimjon, et al. "Features and main characteristics of content-based instruction." *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.5 (2022): 1132-1135.
- [16]. Qizi, Shermamatova Zaynab Azimjon, et al. "Features and main characteristics of content-based instruction." *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.5 (2022): 1132-1135.
- [17]. Azimjanovna, Shermamatova Zaynab. "Methods of teaching english language lessons." *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium). Vol. 2. 2023.*
- [18]. Nizomiddinovich, Esirgapov Muxiddin, et al. "About alternative definitions of pragmatics." *pedagogical sciences*: 47.